

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



2024 yil "22" iyun
Quyoshga olindi № 05103046

MEHNAT IQTISODIYOTI
FANINING
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000—Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
Ta'lim sohasi: 230000 – Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi: 60411700 - Logistika (agrologistika)

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
MEHIQM 3308	2024-2025	5 va 6	5-semestr -4, 6-semestr 4, Ja'ni 8	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
<i>majburiy</i>	O'zbek	4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1.	Mehnat iqtisodiyoti (5-cek) Mehnat iqtisodiyoti (6-cek) ja'ni	60 60 120	60 60 120	120 120 240
2.	I. Fanning mazmuni			
<p>O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining bozor munosabatlari asosida rivojlanishi ijtimoiy mehnat munosabatlari shtasida ham tub o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu o'rinda mamlakatimizda aholi daromadlari, turmush darajasi hamda farovonligini o'sishini taminlashga qaratilgan faol siyosat amalga oshirilmoqda. Bunday yondashuv talabalarida iqtisodiy fanlarni yanada chuqur o'rganishi uchun mehnat munosabatlarining barcha sohalarlari boyicha dunyoqarashni shakllantirish orqali yetuk iqtisodchi kadrlar bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Mamlakatimizda iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan insonning har tomonlama kamol topishi uchun barcha shart sharoitlar yaratilganligi muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda, aholi ehtiyojlarini qondirish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning asosiy manbai, ish bilan taminlash bilan bog'liq muammolarni hal etish eng muhim ustuvor vazifalardan biridir.</p> <p>Talablarga mazkur ftn doirasida mamlakatimizda ijtimoiy mehnat munosabatlari tizimidagi Qonunlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, sohaga oid meyoriy materiallardan amalda foydalana olish ko'nikmalari singdiriladi. Darhaqiqat, bunday ko'nikmalar "Mehnat iqtisodiyoti" fanida mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari, yani, mehnat bozori, aholini ish bilan taminlash, aholi daromadlari va turmush darajasini, aholi farovonligini oshirish kabi alohida mavzular orqali ochib beriladi.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda mamlakatni yangilash va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy - mehnat munosabatlarini takomillashtirish boyicha ilmiy-nazariy bilimlar berish hamda ilmiy asostlangan xulosa va tavsiyanomalar ishlab chiqishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - mehnat jarayonlarini tashkil etishni o'rganish; mehnat salohiyati va mehnat resurslarining mohiyati, mazmuni va shakllanish jarayonini ko'rsatib berish; mehnat unumdorligi, uni oshirish omillari hamda zahiralarni aniqlash; bozor mexanizmi tizimida mehnat bozorining mohiyati, ahamiyati, nazariy asoslari, klassifikatsiyasi va segmentatsiyasini ifodalash; bozor munosabatlari sharoitida aholini ish bilan bandligi muammolari va ularning yechimini topish; ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tarkibi, tuzilishi va ularni aniqlash; xodimlar mehnatini baholash va ish haqini tashkil etish tizimini o'rganish; ijtimoiy sherikchilikning mohiyati, ahamiyati, asosiy maqsadi, elementlari, tamoyillari va tashkil etish</p>				

<p>yo'llarini o'rganish; ish haqi shakllari va uni taqsimlash tahlili hamda mehnat unumdorligi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilini o'rganishdan iborat.</p> <p>II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)</p> <p>III. IQTISODIY XAVFSIZLIK FANI BOYICHA MAVZULAR VA UNING TARKIBI:</p> <p>5-SEMESTR</p> <p>1-mavzu. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi va uning jamiyat rivojlanishidagi roli (2-soat)</p> <p>Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishida Arastudan F.Smitgacha bo'lgan davr. Arastu asarlarida tovarlarning qiyoslana olishi muammosi haqida. Uilyam Petti va Pyer Buagilber tomonidan mehnat haqidagi fanga asos solinishi. Fransua Kene ta'limotida qishloq xo'jalik mehnatining yoritilishi. A.Smitning mehnat unumdorligi oshirishning asosiy shartlari haqidagi nazariyasi. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishida D.Rikardo ta'limoti. Qiymatga oid mehnat nazariyasi va ishlab chiqarish omillari. "Mehnat" to'g'risidagi nazariyaning rivojlanishida J.B.Sey , marjinalchilar va yangi klassiklarning roli. Bozor iqtisodiyoti va mehnat munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solib borish nazariyasi. Y.Shumpeter, J.M.Keyns va yangi klassik sintezlarning qarashlari. Mehnat to'g'risidagi fanni yuzaga kelishida Islom iqtisodiyoti mafkurachilari va sharq iqtisodiy tafakkurining o'rni. A.Temurning iqtisodiy goyallari. Sohibqironning iqtisodiy siyosati zamirida inson, uning manfaati va tinch hayot kechirish muammolarining ko'rilishi.</p> <p>2- mavzu. Mehnat iqtisodiyotining predmeti va uslubiyati (2-soat)</p> <p>Mehnatning inson va jamiyat faoliyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'rni. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishi. Qiymatga oid mehnat nazariyasining rivojlanishi. Mehnat to'g'risidagi nazariyaning rivojlanishi; Mehnat to'g'risidagi fanning yuzaga kelishida islom iqtisodiyoti mafkurachilari va Sharq iqtisodiy tafakkurining o'rni. Mehnat iqtisodiyoti predmetining shakllanishi va rivojlanishi. Mehnat iqtisodiyotining bo'limlari va muammolari. Mehnat turlari va ularning xususiyatlari. Mehnat elementlari va mehnat jarayoni. Mehnatning namoyon bo'lish shakllari va funksiyalari. Mehnat ishlab chiqarish omili sifatida. Inson va jamiyat rivojlanishida ish vaqti hamda ayrim mehnat turlarini qiyosiy o'ichash.</p> <p>3- mavzu. Mehnat jarayonlarini tashkil etish (2-soat)</p> <p>Mehnatni tashkil etish: mohiyati va hususiyatlari. "Mehnatni tashkil qilish" tushunchasining paydo bo'lishi. F.Teylorming "mehnatni ilmiy asosda boshqarish" nazariyasi. Hodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan taminlashning mohiyati va mazmuni. Ijtimoiy mehnat munosabatlarini tashkil qilish. Insonning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi holati. Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi. Jamiyatda mehnat taqsimotining turlari. Korxonalarda mehnat taqsimotining asosiy ko'rinishlari. Korxonada mehnat kooperatsiyasini takomillashirishning asosiy yo'nalishlari. Ish o'rni - ishlab chiqarish makonining bir qismi. Ish o'rni ta'minlash. Ish o'rnilarining bir qator belgilari. Ish o'rnilarini tashkil etish, rejalashtirish va xizmat ko'rsatish. Xizmat ko'rsatish tizimi. Mehnat intizomi va uni rag'batlantirish. Mehnat sharoitlari va ularga baho berish. Chet ellarda mehnat faoliyatini tashkil</p>
--

etish va oqionalashtirish nazariyasining rivojlanirilishi. Mustaqil Hamdo'stlik Mamlakatlarida va O'zbekistonda mehnatni tashkil etish nazariyalarining rivojlanishi.

4- mavzu. Bozor xo'jaligi tizimida mehnat bozori (2-soat)
Mehnat bozori: mohiyati, mazmuni va tuzilishi. Mehnat bozori - bozor iqtisodiyotining muhim elementi sifatida. Mehnat bozorining asosiy elementlari. Mehnat bozori tizimini boshqarishning konseptual modeli. Mehnat bozorida davlat siyosatining yo'nalishlari. Tashqi va ichki mehnat bozorlari elementlarining o'zaro harakati. Mehnat bozori konyunkturasi. Mehnat bozorining ishlash mexanizmi. Ko'lam samarasi va o'rinni bosish samarasi. Talab va taklifning o'zaro aloqadorligi. Mehnat bozorining turlari: ularning segmentlarga bo'linishi va moslashuvchanligi. Mehnat bozorida qat'iyat va ehtiyoj. Mehnat bozorida raqobat. Mehnat bozori modellari. Mehnat bozorining segmentlarga bo'linishi va moslashuvchanligi. Yollanma xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori subyektlari bilan ularning vakillari o'rtasidagi munosabatlar, mehnat bozori subyektlari bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar. Birlamchi va ikkilamchi mehnat bozorlarining asosiy hususiyatlari. Mehnat bozori va uning rivojlanishi bo'yicha nazariy qarashlar. Demografik tendensiyalar va ularning mehnat bozoriga ta'siri. Aholining keksayish muammosi. Mehnat bozorida eng yangi tamoyillar: globallashuv va milliy manfaatlar. Mehnat bozori va uni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari. Mehnat bozorida davlat siyosatining yo'nalishlari.

5- mavzu. Mehnat resurslari va mehnat potentsiali (2-soat)
Mehnat resurslari ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida. Mehnat resurslarining shakllanishi. Mehnat resurslari tarkibi: hozirgi paytda faol va faol bo'lmagan aholi turlarining tasnifi. Mehnat resurslaridan foydalanish. "Aholi" haqida tushuncha. Aholini paydo bo'lishi. Mehnat resurslarini yosh jihatdan tuzilishi. Mehnat resurslarining sonini aniqlash. Mehnat resurslarini matakaviy tarkibi. "Mehnat salohiyati" haqidagi tushuncha va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Tashkilot salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish. Mehnat potentsiali va mehnat resurslarining shakllanishida inson omili. Mehnat potentsialidan foydalanish. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari. Mehnat resurslari balansini tuzish va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni aniqlash. Mehnat resurslarining miqdori. Iqtisodiy faol aholi soni. Ish bilan bandlar soni. Ish bilan band bo'lmagan, ishga joylashishga muhtoj shaxslar sonini aniqlash. Mehnat resurslarining prognoz balansini tuzish. Mehnat resurslari hamda ishga joylashishga muhtoj shaxslar soni balansining ma'lumotlaridan foydalanish.

6-mavzu. Aholini ish bilan bandligi nazariyalari va ularni amalda qo'llanilishi (2-soat)

Aholini ish bilan bandligining klassik va neoklassik nazariyalari. Klassik maktabning namoyandalari A.Smit va D. Rikardo ta'limotlarida bozor xo'jaligida to'liq ish bilan bandlik nazariyasining asoslanishi. J.Keyns va neokeynschaning ish bilan bandlik nazariyasi. Hozirgi zamon neoklassik nazariyalarda ish bilan bandlik masalalari. A.Fillips inflyatsiya va ishsizlikning bir-biriga bog'liqligi haqida. Fillips egri chizig'i.

Monetaristlar va neokonservativizm yo'nalishlarining vujudga kelishi. Milton Fridman maktabi. Ishsizlikning tabiiy meyori to'g'risidagi gipotezalar. Neoklassik sintez. Ish bilan bandlikning hozirgi zamon nazariyalaridan foydalanish. Ish bilan bandlikning yangi makroiqtisodiy nazariyasi. Shartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi. Institutsonal yo'nalish. tuzish, tarqiqatlarini marketing faoliyatida qo'llashning xususiyatlari.

7-mavzu. Aholi ish bilan bandligining shakllanishi va mohiyati (2-soat)

Aholini ish bandligining mohiyati va mazmuni. Ish bilan bandlikning turlari. Aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning ustuvor yo'nalishlarining mazmun-mohiyati. Aholini ish bilan bandligini oshirishda kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish. Kichik biznesni yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar. Xizmatlar ko'rsatish sohasini yanada jadal rivojlantirish ishlarini chuqurlashtirish katta ahamiyatga ega ekanligi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish. Xususiy sektorga qishloq joylarda ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi va aholi daromadlarini oshirishda kasanachilik hamda shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish sohasini rivojlantirish ahamiyati.

8- mavzu. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning mehnat bozoriga ta'siri (2-soat)
Ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va mohiyati. Ishchi kuchi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri. Mehnat resurslari hududiy safarbarligining mohiyati. Mehnat resurslarining mexanik harakati. Hududlar bo'yicha mehnat resurslarining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Mehnat resurslarining migratsion harakati. Mehnat resurslarining migratsion harakatiga ta'sir etuvchi omillar. Emmigratsiya. Immigratsiya. Reemigratsiya. Migratsiya ko'rsatkichlari. Migratsion harakatning intensivligi. Migratsiya saldos. Migrantlar oqimi. Mehnat resurslarining hududiy safarbarligini tartibga solish yo'llari. Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi va uning asosiy ko'rinishlari. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatidagi mehnat migratsiyasining ko'lam va geografiyasi. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi bo'yicha davlat siyosatining amalga oshirilishi

9- mavzu Ishsizlik: sabablari, hususiyatlari va kamaytirish yo'llari (2-soat)
Ishsizlik haqida umumiy tushunchalar. Ishsizlik shartlari. A.Ouken qonuni. Ishsizlikning tarqalishi va ishsizlar xarakati. Ishsizlikning davomiyligi. Ishsizlik bo'yicha nafaqalar. Ishsizlikning sabablari. O'zbekistonda ishsizlikning o'sish sabablari. Ishsizlikning ijtimoiy - iqtisodiy chiqimlari. Ishsizlik tasnifi. Ishsizlik turlari. Tabiiy ishsizlik Majburiy ishsizlik. Tarkibiy ishsizlik. Friktsion ishsizlik. Davriy ishsizlik. Yashirin ishsizlik. Ishsizlikning turli mezonlari bo'yicha tasnifi. Ishsizlikni kamaytirish yo'llari. Ish bilan bandlik va ishsizlikdan himoyalash himoyalash siyosati. Ish bilan bandlikni va ishsizlikdan himoyalash siyosatining umumiy tuzilmasi. Ish bilan bandlikni o'sishini rag'batlantirish yo'nalishlari. Ishsizlikning jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatishi. Aholini ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha

davlat tadbirlari. Kasbga qayta o'qitish. Ta'lim berish tizimini kengaytirish. Bo'sh ish joylari haqida ahborotlarni tarqatish. O'zbekistonda ishsizlik muammosining ayrim xususiyatlari.

10- mavzu. Mehnat unumdorligi: tushunchasi, o'lchash omillari va rezervlari (2-soat)

Mehnat unumdorligi va uning ahamiyati. Mehnat unumdorligi, samaradorligi va mahsuldorligi. Mehnat unumdorligini o'lchash usullari. Korxonada mehnat unumdorligini oshirish zahiralarning tahlili va monitoringi. Mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish. Korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini rejalashtirish va uning muammolari. Rejalashtirishdagi metodlar, modellar va axborotlar. Rejalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlari. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini prognozlashtirish asoslari, usullari, modellari va bosqichlari. Mehnat unumdorligini rejalashtirishda ekspert usulining ustuvorligi. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini prognozlashtirishni takomillashtirish. Korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari monitoringi va uni o'tkazishni takomillashtirish yo'nalishlari.

11- mavzu. Aholining turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish (2-soat)

Aholi daromadlari va ularni taqsimlanishi bo'yicha nazariy qarashlar. Turmush darajasining iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, qiymat va natural ko'rsatkichlari. Aholi turmush darajasini tahlil qilishning asoslari. Aholi daromadlari va ularning shakllanish manbalari. Aholi daromadlarining manbalaridan unumli foydalanish yo'nalishlari. Aholi daromadlarining asosiy ko'rsatkichlari va omillari. Aholi daromadlarini tahlil qilish asoslari. Aholi daromadlarini tahlil etishning yutuqlari va kamchiliklari, hamda ularni bartaraf etish yo'llari. Aholi daromadlarini oshirishning muammolari va ularni yechimlari. Kam ta'minlangan aholining daromadlari va ularni oshirish uchun yangi manbalarni izlab topish. Qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan eng muhim ustuvor vazifa sifatida.

12- mavzu. Personal va inson resurslarini boshqarish (2-soat)

Insonni tashkilotdagi roli to'g'risidagi boshqaruv nazariyasi. Iqtisodiy hayot subyekti to'g'risidagi tasavvurning rivojlanishi. Boshqaruv nazariyalarining tasnifi. "Tizim", "boshqaruv", "tartibga solish", "personal" tushunchalarining metodologik ahamiyati. A.Fayolning ma'muriy faoliyatga ta'vulli 14 tamoyili. Mehnat taqsimoti. Hokimiyat. Intizom. Biron-bir ijtimoiy tuzilmadagi intizomning ahvoli. Buyruq berish birligi. Rahbarlikning birligi. Hususiy manfaatlarining umumiy manfaatlarga bo'ysunishi. Personalni rag'batlantirish. Markazlashtirilish. Iyerarxiya. Tartib. Adolat. Personal tarkibining doimiy bo'limishi. Tashabbuskorlik. Personalni birlashtirish. "Fordizm" tizimining vujudga kelishi. Personalni ijtimoiy psixologik jihatdan boshqarishning nazariy

muammolari. Inson potensialini faollashtirishning omillari. Korxonalarda personalni shakllantirish va tashkil qilish amaliyoti. O'zbekiston korxonalarida personal xizmati. Personalni boshqarishning xorijiy tajribalari va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari.

13- mavzu. Ish haqini tashkil etish va uni isloh qilish (2-soat)

Ish haqining mohiyati va uning shakllanishi. Ishchi kuchining foydalliligi va bahosi. Hodimlar uchun ish haqi. Tadbirkor uchun ish haqi. Ish haqini bozor qonunlari asosida tashkil etish mexanizmining asosiy unsurlari. Ish haqining rag'batlantiruvchilik vazifasi. Mehnatga haq to'lashning takror ishlab chiqarish vazifasi. Mehnatga haq to'lashning tartibga soluvchi vazifasi. Mehnat unumdorligi oshishi. Ish haqining elementlari. Ish haqini tashkil etish tamoyillari - daromadlari va mehnatga haq to'lash siyosatini ishlab chiqishning metodologik asosi. Ish haqini tashkil etish tamoyillari va vazifalarining aloqadorligi. Bozor munosabatlari sharoitida xodimlar daromadlarining asosiy turlari. Xodimlar manfaatdorligi tizimi. Ish haqini tashkiliy asoslari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarning ish haqi funksiyalari. Tarif tizimining mohiyati va elementi. Tarif malaka spravochnigi. Tarif jadvali. Tarif bo'yicha tabaqalashning iqtisodiy omillari. Mehnatga haq to'lashni tashkil etishning asosiy tamoyillari. Korxonada mehnatga haq to'lashning tashkiliy asoslari. Korxonada ish haqi fondini rejalashtirishning mohiyati, bosqichlari va asosiy yo'nalishlari. Ish haqini rejalashtirishning takomillashtirish yo'llari. Mamlakatni yangilash va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ish haqini isloh qilish yo'nalishlari

14- mavzu. Mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etish (2-soat)

Mehnatga haq to'lash tizimlari tushunchasi va ularning tasnifi. Ish haqini tashkil etish amaliyotidagi mehnatni normalashning tarif va tashkiliy texnik turlari. Asosiy va qo'shimcha ish haqi. Ish haqining ishbay hamda vaqtbay tizimlarini qo'llash. Mehnatga haq to'lashning oddiy va odatiy vaqtbay tizimi. Mehnatga haq to'lashning akkord tizimi. Mehnatga haq to'lashning bilvosita usuli. Mehnatga haq to'lashning moddiy tizimlari. Haq to'lashning rag'batlantiruvchi tizimlari. Asosiy ish natijalari uchun rag'batlantirish tizimlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini aniqlash. Korxonalarda ish haqiga qo'shimchalar, ustamalar va bir marta beriladigan mukofotlarni qo'llash. Ish natijalari. Ish samaradorligi. Individual mukofotlash. Rag'batlantiruvchi qo'shimchalar va ustamalar.

15- mavzu. Bozor munosabatlari tizimida mehnatni boshqarish (2-soat)

Mehnatni boshqarish xususiyatlari. Ijtimoiy mehnat sohasi. Mehnatni boshqarish funksiyalari. Mehnatni boshqarish tizimi. Mehnatni boshqarish turlari va metodlari. Mehnatni boshqarishning davlat shakllari. Mehnatni boshqarishning shartnomali shakllari. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligining mehnatni boshqarishdagi roli. Vazirlikning asosiy vazifalari, boshqaruv jarayoni. Vazirlik faoliyatini tashkil etish. Mehnat vazirligiga bo'ysunuvchi tashkilotlar. Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajalarda mehnatni boshqarish. Mehnatni boshqarishning xalqaro darajasi. XMTning asosiy vazifalari. Korxonada mehnatni boshqarish. Davlat darajasida mehnatni boshqarish. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatni boshqarish tizimini takomillashtirish.

6-SEMESTR

16-mavzu. Ijtimoiy rivojlanish nazariyalari (2-soat)

Ijtimoiy rivojlanish nazariyasining metodologik asoslari. Iqtisodiy o'sish va uning ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalarda inson omili rolining evolyusiyasi

17-mavzu. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi (4-soat)

Iqtisodiy o'sish va inson taraqqiyoti. Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi. "Xalqlarning xaqiqiy boyligi - insonlar"

18-mavzu. Inson taraqqiyoti mezonlari va BMTning MINGYILLIK rivojlanish maqsadlari (2-soat)

Inson taraqqiyotini baholashning asosiy mezonlari va ularning xususiyatlari. Inson taraqqiyoti indeksi va uning tarkibiy qismlarini hisoblash uslubiyoti. BMTning Mingyillik rivojlanish maqsadlari, ularning vazifalari va indikatorlari.

19-mavzu. Inson taraqqiyotida ish bilan bandlikning roli (4-soat)

Ish bilan bandlik va inson taraqqiyoti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Davlatning ish bilan bandlikni tartibga solish siyosati. O'zbekistonda ish bilan bandlik sohasidagi tendensiyalar.

20-mavzu. Farovonlik konsepsiyasi va turmush darajasi (2-soat)

Farovonlik konsepsiyasining nazariy va metodologik asoslari. Turmush darajasi va turmush sifati, ularning ko'rsatkichlari va indikatorlari. Tenglik va inson taraqqiyoti

21-mavzu. Inson taraqqiyoti omillari (4-soat)

Ta'lim va inson taraqqiyoti. Salomatlik - inson taraqqiyotining hal qiluvchi sharti. Demografik vaziyat va uning inson taraqqiyotidagi roli. O'zbekistonning demografik rivojlanishi. Inson taraqqiyotining gender omillari. A'irof muhitning inson taraqqiyotiga ta'siri. Turar joyga ega bo'lish - turmush darajasi va turmush sifatining mezonlari.

22-mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish va inson taraqqiyoti (4-soat)

Ijtimoiy himoya tizimining inson taraqqiyotidagi roli. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zaruriyati, mohiyati, turlari. Kuchli ijtimoiy siyosat - inson rivojlanishi "o'zbek modeli" ning ustuvor yo'nalishi. Mahalla - O'zbekiston aholisini ijtimoiy muhofaza qilishni tashkil etishning noyob instituti Aholini ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlari. "Ijtimoiy muhofaza qilish" tushunchasi va uning asosiy yo'nalishlari. Ijtimoiy muhofaza tizimi. "Ijtimoiy xatar" kategoriyasi. Ijtimoiy muhofaza subyektlari. Ijtimoiy muhofaza darajalari. Ijtimoiy muhofaza predmetlari va ularning tarkibi. Ijtimoiy muhofaza prinsiplari. Ijtimoiy muhofazani baholash mezonlari. Samarali ijtimoiy muhofazalash. Ijtimoiy institutlar va xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi. Ijtimoiy muhofaza shakllari va mexanizmlarini amalga oshirishda davlatning roli. Ijtimoiy kafolatlar. Ijtimoiy muhofaza qilish konsepsiyasini shakllantirish tarixi. Yollanma xodimlar huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish. Ijtimoiy muhofaza qilishning asosiy tamoyillari. Ijtimoiy kafolatlarning asosiy vazifasi. Mehnatga qobiliyatli aholining ijtimoiy kafolatlari to'g'risidagi qonunlar. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy muhofaza qilishning manzilli tizimi. Aholining kam ta'minlangan qismini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishning o'zi xos xususiyatlari va manbalari. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy muhofaza qilish

samaradorligini oshirish yo'llari. Ishsizlarni ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmlari. Nafaqxo'rlarni ijtimoiy muhofazalash. Aholining ijtimoiy muhofaza qilishni samarali tizimini vujudga keltirish muammolari. Xorijiy mamlakatlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish tajribalari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.

23-mavzu. "Hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun" (2-soat)
Mustaqillikka erishish va inson rivojlanishi milliy modelining ishlab chiqilishi. Iqtisodiyotni isloh etish va uning inson taraqqiyotiga ta'siri. Inson kapitaliga investitsiyalar.

24-mavzu. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va maqsadli dasturlar (4-soat)

O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar. Mamlakatda inson rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy maqsadlarini amalga oshirishning natijalari.

25-mavzu. O'zbekistonda inson taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari (4-soat)

Inson manfaatlarini ta'minlashda barqaror rivojlanishning roli. "Bilimga asoslangan iqtisodiyot" - taraqqiyotning bosh omili. Mamlakatda inson taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BUYICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN QUYIDAGI MAVZULAR TAVSIYA ETILADI:

5-SEMESTR

1-mavzu. Mehnat to'g'risidagi fanning yuzgaga kelishi va uning jamiyat rivojlanishidagi roli (2-soat)

2-mavzu. Mehnat iqtisodiyotining predmeti va uslubiyati (2-soat)

3-mavzu. Mehnat jarayonlarini tashkil etish (2-soat)

4-mavzu. Bozor xo'jaligi tizimida mehnat bozori (2-soat)

5-mavzu. Mehnat resurslari va mehnat potentsiali (2-soat)

6-mavzu. Aholini ish bilan bandligi nazariyalari va ularni amalda qo'llanilishi (2-soat)

7-mavzu. Aholi ish bilan bandligining shakllanishi va mohiyati (2-soat)

8-mavzu. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning mehnat bozoriga ta'siri (2-soat)

9-mavzu. Ishsizlik: sabablari, hususiyatlari va kamaytirish yo'llari (2-soat)

10-mavzu. Mehnat unumdorligi: tushunchasi, o'lchash omillari va rezervlari (2-soat)

11-mavzu. Aholining turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish (2-soat)

12-mavzu. Personal va inson resurslarini boshqarish (2-soat)

13-mavzu. Ish haqini tashkil etish va uni isloh qilish (2-soat)

14-mavzu. Mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etish (2-soat)

15-mavzu. Bozor munosabatlari tizimida mehnatni boshqarish (2-soat)

6-SEMESTR

- 16-mavzu. Ijtimoiy rivojlanish nazariyalari (2-soat)
 17-mavzu. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi(4-soat)
 18-mavzu. Inson taraqqiyoti mezonlari va BMTning MINGyillik rivojlanish maqsadlari (2-soat)
 19-mavzu. Inson taraqqiyotida ish bilan bandlikning roli (2-soat)
 20-mavzu. Farovonlik konsepsiyasi va turmush darajasi (2-soat)
 21-mavzu. Inson taraqqiyoti omillari (4-soat)
 22-mavzu. Aholini ijtimoiy himoya qilish va inson taraqqiyoti(4-soat)
 23-mavzu. "Hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun" (2-soat)
 24-mavzu. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va maqsadli dasturlar (4-soat)
 25-mavzu. O'zbekistonda inson taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari (4-soat)

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN MAVZULAR

1. Yangi O'zbekistonning 2022-2027 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasidagi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberalashirishga yo'naltirilgan ustuvor vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. Mehnat resurallaridan iqtisodiyot tarmoqlarida oqilona foydalanish yo'llari
3. Aholini ish bilan taminlashni davlat tomonidan tartibga solish
4. Hududlar va mintaqalarda mehnat bozori shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari
5. Viloyat, tuman (shahar)lar bo'yicha mehnat resurslari balansini tuzish va tahlil etish tartibi
6. Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularning shart sharoitlari
7. Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish yo'llari
8. Aholi daromadlarini davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari
9. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida aholining ish bilan bandligini tartibga solish yo'llari
10. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va zahiralari
11. Respublikada aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
12. Aholining ish bilan bandligining shakllanishi va ulardan foydalanish
13. Ishsizlikning kelib chiqish sababalari, xususiyatlari va uni kamaytirish yo'llari
14. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati
15. Aholining ish bilan bandligini oshirishda kasanachilik faoliyatining o'rni
16. Insonni taraqqiyoti – ishlab chiqarish faoliyatining asosiy maqsadi sifatida
17. Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti kontsepsiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari
18. O'zbekistonda inson taraqqiyoti kontsepsiyasini targ'ib etish.
19. O'zbekistonda demografik siyosatning istiqbolli yo'nalishlari

20. Mehnat motivatsiyasi omillarining manaviy va marifiy tuzilishi
 21. Xodimlar mehnatiga baho berish
 22. Mehnatga moslashishning obektiv va subektiv omillari
 23. Ijtimoiy kafolat va ijtimoiy yordam.
 24. Mehnat sohasidagi aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish
 25. Hudud va mintaq aholisini turmush va farovonligini oshirish yo'llari
 26. Iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini barpo etish yo'nalishlari
 27. Kasanachilik mehnatini joriy etish va uning istiqbollari
 28. Yashash minimumi va istemol savatining iqtisodiy mohiyati
 29. Xodimlarning martabasi va uning rivojlanib borish bosqichlari
 30. Yosh oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish yo'nalishlari
 31. Inson taraqqiyoti konsepsiyasi
 32. Inson taraqqiyoti mezonlari va BMTning MINGyillik rivojlanish maqsadlari
 33. Inson taraqqiyotida ish bilan bandlikning roli
 34. Farovonlik konsepsiyasi va turmush darajasi
 35. Inson taraqqiyoti omillari
 36. Aholini ijtimoiy himoya qilish va inson taraqqiyoti
 37. "Hamma narsa inson uchun, inson manfaatlari uchun"
 38. O'zbekistonda inson taraqqiyoti bo'yicha milliy ma'ruzalar va maqsadli dasturlar.
 39. O'zbekistonda inson taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. V. FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYALAR)

FANNI O'ZLASHTIRISH NATIJASIDA TALABA:

- "Mehnat iqtisodiyoti" fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:
- mehnat jarayonlarini tashkil etishni; davlatning ish bilan bandligi siyosati; aholini ish bilan bandligining nazariy asoslarini; mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlarini; aholini ish bilan bandligini tartibga solish usullarini; mehnat bozorini tahlil qilish va istiqbollashtirish uslubiyatini; mehnat unumdorligini o'lchash usullarini; aholini turmush darajasi, daromadlari va uni davlat tomonidan tartibga solish yo'llarini; iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnatga haq to'lash tizimlarini tashkil etishni *bilishi*;
 - talaba mehnat bozordagi talab va taklifi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida bozorni tahlil qilish va xulosalar chiqarish; statistik ma'lumotlar asosida aholini ish bilan bandligi holatini tahlil va istiqbollashtirish; ishchiga talab va taklifi aniqlashni; ishchi kuchi qiymatini va bahosini topish; mehnat bozorida holatni tahlil qilish; ishchi kuchiga talab va taklifi istiqbollashtirish; mehnat bozorini sotsiologik tadqiq etish asosida xulosalar chiqarish; mehnat unumdorligini darajasini aniqlash; mehnatga haq to'lash tizimi xolatini tahlil qilish; aholining

4.	<p>turmush darajasini va yashash sharoitlarini holatini tahlil qilish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;</p> <p>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➢ ma'ruzalar; ➢ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ➢ interfaol keys-stadialar; ➢ blis-so'rov; ➢ guruhlarda ishlash; ➢ taqdimotlarni qilish; ➢ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.
5.	<p>VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</p> <p>Fanga oid nazariy-amaliy va ilmiy-uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va olingan natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy, oraliq va yakuniy nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni belgilangan muddat va tartibda bajarishi hamda topshirishi kerak.</p>
6.	<p>VIII ASOSIY ADABIYOTLAR</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти: Назария ва амалиёт / Дарслик. Қаландар Абдурахмонов. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «FAN» нашриёт давлат корхонаси. Т.: 2019. - 592 б. 2. Abdurakhmanov, K.Kh. Labour Economics. Theory and practice: textbook: K.Kh. Abdurakhmanov 3. Абдурахмонов Қ.Х. —Мехнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. Т.: —МЕХНАТ, 2012.- 763 б. 4. Абдурахмонов Қ.Х. таҳрири остида . Инсон тараққиёти. Дарслик – Т.: Иқтисодиёт, 2016. – 542 б. 5. Буланов И.С, Волгин Р.А. Ринок труда. Учебник. – М.: Экзамен, 2007. – 479 с. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” Toshkent “O'zbekiston” NMIU-2017—47 b. 2. Mirziyoev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent “O'zbekiston” NMIU-2017—485 b. 3. Mirziyoev SH.M. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qotdasi bo'lishi kerak” Toshkent “O'zbekiston” NMIU-2017—103 b. 4. Ходиев Б.Й. ва бошқ. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик: ўқув кўлланима. – Т.: ТДИУ, 2010. – 267 б. 5. Кибанов А.Й. Управление трудовыми ресурсами. Учебное пособие – М-“Инфра-М”. 2010. -284 стр. <p>Axborot manbaalari http://www.economics.ru</p>

	<p>http://www.ved.ru http://www.ser.uz http://www.uza.uz http://www.ifmr.uz 36. http://www.lex.uz 37. http://www.ziyounet.uz</p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
8.	<p>X.Fan/modul uchun mas'ullar: SH.O.Amirqulov – QarMII “Innovasion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)</p>
9.	<p>XI Taqrizchilar: X.S.Muhitdinov QarMII “Biznes va ishlab chiqarishni boshqarish” kafedrası professori, i.f.f.d. F.B.Aminov – QarMII “Innovasion iqtisodiyot” kafedrası dotsenti. i.f.n.</p>